

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, D.R.Murodova

Bo'lajak o'qituvchilarda "Tanqidiy tafakkur" tushunchasining metodologik asoslari
va o'ziga xos xususiyatlari..... 8

T.A.Egamberdiyeva, J.A.Qurbonov

Bo'lajak pedagoglarda intellektual madaniyatni rivojlantirishning integrativ ta'lim texnologiyalari... 12

S.Mannapov

Uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimida musiqiy meros omili va imkoniyatlari..... 17

A.Abdullayev, J.X Abdullayev

Kichik maktab yoshidagilarni o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi ayrim omillar 21

J.G'.Obidov

Texnika oliy o'quv yurtlarida o'quv materiallarini imitatsion-variantlik asosida o'qitishni
takomillashtirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari 25

A.T.Xasanov

Harbiy ta'lim bo'yicha bo'lg'usi mutaxassislarni kasbiy-amaliy jismoniy tayyorlashning
dolzarb masalalari..... 31

X.X.Abdurahmov

Iqtidorli o'quvchi yoshlarni yengil atletika turlariga saralash texnologiyasi 37

R.M.Ubaydullayev

Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish tuzilmasi
va komponentlari..... 42

A.N.Qosimov

O'quvchilarda sport vositasida milliy identifiklikni shakllantirish samaradorligi..... 49

D.R.Murodova, H.M.Ashurova

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida interfaol metodlarni rivojlantirish 55

A.I.Tuychiyev

Jismoniy mashqlar bilan o'quvchilarni mustaqil shug'ullanish malakalarini shakllantirish..... 61

S.T.Xakimov

Chidamlilik jismoniy sifatlarini rivojlantirishda maxsus aerobik mashqlar qo'llash samaradorligi 65

O.M.Karimov

Bo'lajak pedagoglarning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish metodlari 69

D.M.Redjabova

O'zbekistonda boshqaruv kadrlarini tayyorlashda xotin-qizlarning faoliyatiga
yangicha yondashuvlar 72

B.X.Baydjanov

Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish – zararli axborotlar tahdididan
himoyalaniş omili sifatida 76

Ш.В.Джалалов

Влияние дифференцированного подхода на формирование здорового образа
жизни у школьников 81

M.A.Xonbabayeva

Logopedik ritmika fani asosida bo'lajak logopedning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning
pedagogik imkoniyatlari..... 85

Ш.В.Джалалов

Физическая подготовленность 11-12 летних девочек общеобразовательных школ
Ферганской области 91

A.B.Mirzayev

Chet tilni zamonaviy o'qitish tizimida sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari..... 95

G.K.Yakubova

O'quvchi-yoshlar qomatining konstitutsion tiplari va ularni antropometrik bahollash usullari..... 99

O.Q.Xasanova

Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarni bartaraf etish kompetensiyasini
takomillashtirish modeli 104

**UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA TIZIMIDA MUSIQIY MEROS OMILI VA
IMKONIYATLARI****РОЛЬ И ВОЗМОЖНОСТИ МУЗЫКАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ В НЕПРЕРЫВНОЙ
СИСТЕМЕ ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ****THE ROLE AND OPPORTUNITIES OF MUSICAL HERITAGE IN THE CONTINUOUS
SYSTEM OF SPIRITUAL EDUCATION****Mannapov Sultanbek** 

Farg'ona davlat universiteti pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti professori

Annotatsiya

Maqolada Yangi O'zbekistonda uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda musiqiy meros omilini ijtimoiy-falsafiy tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, Yangi O'zbekistonda uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi samaradorligini oshirishda musiqiy meros namunalariidan foydalanish imkoniyatlari, Yangi O'zbekistonda uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonida musiqiy meros omilining istiqboldagi vazifalari o'rganilgan. Shuningdek, uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimida musiqiy meros omili va imkoniyatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассмотрены теоретико-методологические основы социально-философского исследования фактора музыкального наследия в реализации непрерывного духовного образования в Новом Узбекистане, возможности использования примеров музыкального наследия для повышения эффективности системы непрерывного духовного образования, будущие задачи фактора музыкального наследия в процессе непрерывного духовного образования изучаются. Также анализируются социально-философские и концептуальные аспекты системы непрерывного духовного образования.

Abstract

In the article, the theoretical and methodological foundations of the socio-philosophical research of the musical heritage factor in the implementation of continuous spiritual education in New Uzbekistan, the possibilities of using examples of musical heritage to increase the effectiveness of the continuous spiritual education system, the future tasks of the musical heritage factor in the process of continuous spiritual education studied. The socio-philosophical and conceptual aspects of the continuous spiritual education system are also analyzed.

Kalit so'zlar: uzluksiz ma'naviy tarbiya, musiqiy meros, ijtimoiy-falsafiy omil, tarbiya, dinamika, uyg'unlashtirish, ijtimoiy davlat, tizimli-funksional tahlil, nazariy-metodologik asos, taraqqiyot, ijtimoiy qadriyat, madaniyat konteksti.

Ключевые слова: непрерывное духовное образование, музыкальное наследие, социально-философский фактор, образование, динамика, гармонизация, социальное состояние, системно-функциональный анализ, теоретико-методологическая основа, развитие, социальная ценность, культурный контекст.

Key words: continuous spiritual education, musical heritage, socio-philosophical factor, education, dynamics, harmonization, social state, systemic-functional analysis, theoretical-methodological basis, development, social value, cultural context.

KIRISH

Har bir millatning o'ziga xos milliy madaniyati bo'lib, uning asosini o'sha millatning bugungi kungacha yetib kelgan barcha san'at namunalari tashkil qiladi. Ana shunday san'at namunalariidan biri o'zbek milliy musiqa madaniyatidir. Uning jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy-madaniy faoliyati ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda shaxs aqliy qobiliyatlarini ifodalovchi musiqiy madaniyat tushuncha sifatida talqin qilinmoqda.

Musiqa insonning turli kayfiyatlari (masalan, ko'tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g'amginlik, xavf-qo'rquv va boshqalar)ni o'zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqa shaxsning irodaviy sifatleri (qat'iyatlik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va boshqalar)ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jamiyatda uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda musiqiy meros namunalariidan keng foydalanish va bu orqali yoshlarning milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqotlar, milliy musiqiy meros va uni asrab-avaylashga doir pedagogik jarayonni isloh

qilish, milliy musiqiy merosga aksiologik munosabatni qaror toptirishning ilmiy-amaliy vazifalari D.Karomatli, T.Levin, Y.Elsner, E.Abdulin, Y.Bodina, O.Bochkareva, E.Burzina, N.Ivanov, L.Koval, V.Rajnikov, A.Rapatskaya, S.Bulatov, B.Azimov, S.Annamuratova, O.Vasilchenko, Sh.Janaydarov, F.Jo'raev, D.Kamolova, H.Nurmatov, F.Xalilov, A.Hasanov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, o'zbek mumtoz musiqiy merosi, folklor qo'shiqlarining tarixi, nazariyasi, xususiyatlarini R.Abdullaev, S.Begmatov, T.Vizgo, O.Ibrohimov, F.Karomatov, I.Rajabov, T.G'ofurbekov, B.Qodirov, M.Qodirov, E.Fayzullaevlarning ishlarida yoritilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Musiqiy madaniyat esa ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, inson estetik tafakkurini rivojlantiradigan, jamiyat axloqiy-ma'naviy xatti-harakatini tartibga solib turadigan darajadir. Bugungi zamonda barcha ezgu niyatli insonlarning birlashtirish, yoshlarni yuksak gumanistik ideallar ruhida tarbiyalashda musiqa san'atining o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lachab, baholab bo'lmaydi. Chunki, musiqa insonning uzoq tarixiy davrlar davomida shakllangan ijtimoiy fikri, g'oyalari, hissiyoti va dunyoqarashidir.

Qadimdan musiqa va uning asosiy ifoda vositalari – kuy va ritm inson kayfiyatini o'zgartiradi, deb qaralgan. Yunonistonda musiqa san'ati – she'riyat, raqs va asosan kuy inson ruhiyatiga eng buyuk ta'sir qiluvchi kuch, vosita deb hisoblangan. Musiqa tovush tovlanishlari orqali fikr va his-tuyg'ularni aks ettiradi, hayot bosqichlarida insoniyatni to'liqlantirib kelgan axloqiy muammolarni bayon qiladi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon bo'ladi. Ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug'orilgan bo'lib, musiqada hayot va o'lim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks etadi.

Musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir qilishining cheksiz imkoniyatlari qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga tortgan. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari san'atlar ichida musiqa san'atining insonni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladigan xususiyatlarini aniqlashga uringanlar.

Qadim zamonlardan musiqaning, ayniqsa, uning komponentlari – ritm va kuyning inson kayfiyatiga ta'siri, uning ichki dunyosini o'zgartirishi haqida fikrlar mavjud bo'lgan. Yunon mumtoz asarlarida musiqa uchta yo'nalishni – she'riyat, raqs va musiqani biriktiruvchi, inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi eng qudratli vosita hisoblangan. O'sib kelayotgan yosh avlodni musiqiy tarbiyalashning ahamiyati haqida qadimgi yunon olimlari muhim fikrlarni bayon etganlar. Chunki kelajak jamiyat a'zosining axloqiy va fuqarolik sifatlarining shakllanishi bolalikdan boshlanadi. O'sha davrlarda ham musiqa shaxsning shakllanishidagi o'ta muhim vositalardan iborat deb hisoblangan. Chunki borliqni aks ettirishda musiqaning xususiyatlari va imkoniyatlari cheksiz. Ma'lumki, inson nutqining boyligi va dastavval uning ohang boyligi musiqadan ma'lum tuyg'u, kayfiyat, kechinmani ifodalash uchun foydalanadi. Bu, avvalo ifodalash san'ati hisoblangan musiqaning maxsus obrazlilik asosidir. Masalan, ba'zi hazin kuylar insonda qayg'u hislarini paydo qilsa, yengil, o'ynoqi yoki tantanavor kuylar kishida shod-xurramlik tuyg'usini keltirib chiqaradi. Zero, musiqa – tuyg'u va kayfiyat uyg'otuvchi inson ruhiy dunyosining tovushlarda ifodalanishidir.

Har bir xalq o'z milliy merosi, an'analarini milliy ohanglar orqali tarannum etuvchi va xalqning milliy ma'naviyatiga xos yaratilgan amaliy san'at namunalari vositasida ularga mos keluvchi cholg'u asboblarga egadirlar. O'zbek musiqiy cholg'ular olami xususida ma'naviy va moddiy nuqtai nazardan boy hamda rang-barang ekanligini e'tirof etib o'tish lozimdir. Qolaversa, qaysiki xalqning ma'naviyati buyuk bo'lsa, uning tarixi va unga mos merosi ham ulkandir.

Sozanda – quruvchi, yaratuvchi, cholg'uchi milliy musiqa cholg'ularidan birida mashq qiluvchi musiqachi; mashshoq, navozanda degan ma'nolarni anglatadi.

Sozandalik – musiqa ijrochiligi san'atining qadimiy turlaridan biri bo'lib, insoniyat hayoti, ma'naviyatimiz ruhiyati va rivojiga beqis madad beruvchi omildir. Sozandalik sohasida shu boisdan ham uzoq o'tmishdan o'ziga xos an'analar vujudga kelgan. Bu an'analar xalq orasida ardoqlanib, turli ko'rinish, uslub va yo'nalishlarda rivojlanib, avloddan-avlodga o'tib, o'z ma'naviy salohiyatini saqlab kelmoqda.

Musiqiy janrlar ichida eng murakkabi, ammo inson qalbiga tez yetib bora oladigani, sozanda tomonidan mohirlik bilan cholg'u sozida ijro etiladigani kuy hisoblanadi. Sozanda ijro etaётgan har bir kuy-ohang o'zining ma'lum bir mazmun mohiyatiga ega bo'lib, u tinglovchiga tovush orqali ta'sir etadi va badiiy obraz yaratadi. Kuyning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, so'z beoqibat qolganda kuy erdamida ko'ngilni eng hilvatli joylarini ham zabt etish imkoniyatiga egadir.

Cholg'u asbobi bu o'ziga xos uskuna. Cholg'uchi unga jon beruvchi, uni ijro etuvchi shaxs. Cholg'uchi tor ma'no, ijrochi keng ma'nodagi tushuncha. Cholg'uchi bir joyda turib ijro qilaveradi. Ammo ijrochi birovning g'oyasini, masalan, "Munojot", "Aliqambar"ni ijro qilib beradi. Sozanda cholg'u sozini chaluvchi, jonlantiruvchi shaxs. Ijrochi musiqiy g'oya, uning ma'nosini fikrini ado ijro etish, ijro etuvchi, yuzaga chiqaruvchi, eshittiruvchi. Sozandaning mahorati va ilhomi tufayli ijro qilingan kuy jonli san'at voqeligiga aylanadi.

Sozgar usta biror-bir cholg'u sozi yasab, undan tovush chiqaradi. Soz yasamoq, bu san'at olamida o'zicha bir yaratuvchanlik. Sozanda esa o'zgacha san'at bilan cholg'u asbobi yordamida kuy yaratadi. Soz musiqada keng ma'noli tushuncha. Hazrat Navoiy sozni quyidagicha ta'riflaydi:

"San'atim anda soz cholmoq ishi,
Bilmayin men kibini ishimni kishi".

O'tmishdan ijrochilik san'ati cholg'uchilik ko'p asrlik an'alarining ijodiy mahsuli hisoblangan. Bu cho'qqini zabt etish sozandaning o'z ijro sozi (inson ovozi yoki unga sun'iy o'xshatma – cholg'u)ga moslashuvdan boshlanadi. Cholg'u ijrochiligining mohir ustalari bo'lgan sozandalar va bastakorlar dildagi niyatlarini amalga oshishini xaelda gavdalandirib, fikrlash orqali tasavvur etiladigan musiqiy g'oyalarni kuy yoki ashulalarga aylantirganlar. Cholg'uchi sozanda o'z kasbining sir-u asrorlarini o'zlashtirishda ma'lum bir darajaga erishgandagina Ustoz degan nomga musharraf bo'ladi.

Musiq ilmda "soz" so'zi ikki asosiy ma'noda ishlatiladi. Cholg'u sozi va yaratuvchi ijodkor ma'nolarida. Masalan, "Farhod va Shirin"dagi quyidagi baytda "soz" so'zi cholg'uchilikka tegishli:

"Mug'anniylar iki yondin navosoz,
Tuzub rud lahni birla ovoz".

Mug'anniy – sozanda. Rud – cholg'u sozi. Lahn – kuy. Demak, bunda "navosoz" deganda cholg'uchilar va kuy ijodkorlari nazarda tutiladi.

Musiq asarini ijod qilish, yaxshi kuylash yoki cholg'u asbobini chalish o'ta murakkab ish. Bu borada inson musiq savodiga ega bo'lish bilan birga, o'zining tuyg'ulari va fikrlari dunyosini ifodalashi va uni boshqalarga o'tishi ham muhimdir. Ana shunda ijro etilgan yoki ijod qilingan san'at asari boshqalarga ta'sir eta oladi. Musiq san'atning boshqa turlari kabi ko'rsatmalilikdan yiroq. Uning asosiy kuchi insonning his-tuyg'ularini bevosita o'zgalarga o'tkazishidir. Chunki musiqada zavq yoki mayuslik, quvonch yoki jo'shqinlik, tantana yoki umidsizlik, qo'rquv yoki umidsizlik kabi tuyg'ular unda to'liq ifodalanadi. Musiqaning ana shu xususiyati, ya'ni u yaratayotgan obrazlarning emotsional boyligi ifodalanadi. Lekin musiqaning ifoda ta'sir kuchi hammaga bir xil bo'lmaydi. Bu – uning ifoda vositasi ekanligidir. Shunga qaramay musiq konkret hodisalarni – yaproqlarning shiviri, qushlarning sayrash, moviy dengiz to'liqinining shovullashi, tog'ning aks-sadosini bera oladi va inson bu hodisa-voqealarni aniq tasavvur qila oladi. Ammo obrazlar musiqasi obrazlarning umumiy tuzilishiga asosiy element bo'la oladi. Chunki musiq insonga musiqiy tovush tili orqali ma'lum qoidalarga, musiqali ijod qonunlariga ko'ra tashkil bo'lgan musiqali tovush bilan so'zlashadi.

XULOSA

Har bir san'atning o'ziga xos ifoda vositasi bo'lib, qo'shiqlardagi obrazlar ifodaliligi, emotsional boyligi, har birida musiqiy shakl va usul mavjudligi va boshqa omillar she'riyat va musiqaning uzviy uyg'unligini ta'minlaydi. Xushovoz xonanda ijrosidagi qo'shiq ohanglar go'zalligi bilan inson qalbining yorqin ifodasiga aylangan so'z go'zalligini ham namayon etadi. Bu esa tinglovchilarning axloqiy estetik olamini boyitadi. Shu jihatdan qo'shiqning kishi qalbiga chuqur kirib borishida ijro etuvchilarning xizmati ham kattadir. Badiiy havaskorlik to'garaklari rahbarlari havaskorlarga xalq qo'shiqlarini o'rgatar ekan, o'zi shu kabi jihatlariga jiddiy e'tibor bermog'i lozim bo'ladi. Zero, xalq qo'shiqlarini ijro etish orqali talaba avvalo ijrochi sifatida uning mazmun tarkibiga chuqur kirib boradi, qolaversa, o'z ijrosi bilan atrofdagilarga ham estetik ta'sir etadi. Uning ta'sir doirasi, kuchini oshirish ham, pedagogik muammo sifatida e'tirof etilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бозорова М.Қ. Ўқувчи-ёшларнинг маънавий дунёқарашни шакллантиришда миллий қадриятлар орқали тарбия бериш механизмларини ривожлантириш. International scientific and technical conference "Digital technologies: problems and solutions of practical implementation in the industry". April 27-28, 2023. – Б. 1112-1117.
2. Джумабоева М. Музыка ва маънавий тарбия. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal. Volume 3 Issue 4 / December 2022. – Б. 741-745.
3. Зинченко В.П. Человек развивающийся. Очерки российской психологии. – М.: Тривола, 1994. – С. 304.
4. Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони, руҳи маънавийдир. /Халқ сўзи. 2021 йил 20 январь. №13 (7793).

5. Иброҳим Каримов. Маънавият, фалсафа ва ҳаёт. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 16.
6. Матёқубов О. Оғзаки анъанадаги профессионал музика асосларига кириш. – Т.:Ўқитувчи, 1983.
7. Ходжаев Б., Уразова М. “Педагогнинг лойиҳалаш маданияти” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Т.: 2016. – Б. 54-55.